

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda PQ-72-sonli qarori ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumot.

Bugungi kunda respublika avtomobil yo'llari sohasiga xalqaro moliya institutlarining, jumladan **Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Saudiya taraqqiyot jamg'armasi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining** mablag'lari jalb etilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2022- 2026 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-sonli qaroriga asosan 2022 yilda **876 mln dollarlik 6 ta** loyiha amalga oshirilmokda.

2022 yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi doirasida kredit qiymati **875,9 mln dollarlik 6 ta** loyihalar xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan 2022 yilda **105,6 mln dollar** o'zlashtirilishi belgilangan.

2022 yilda davomida mazkur loyihalar doirasida olib borilgan ishlar natijasida **110,8 mln dollar** mablag' o'zlashtirildi hamda belgilangan prognoz ijrosi **105 foizga bajarildi.**